



XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 3-may

VII-8-55-7-101-K/25

Pastdarg‘om tumani

2025-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 22-apreldagi 01-33/273—sonli xatini hamda tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya xulosalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asoslanib, xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman Kengashining 8-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Pastdarg‘om tuman hokimligining tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalardan shakllangan mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan 395,0 (uch yuz to‘qson besh) mln.so‘m mablag‘ “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga o‘tkazish uchun ilovaga asosan tuman hokimligiga ajratilsin.
3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Maxmanazarov)ga tuman mahalliy byudjetining rejasiga tegishli o‘zgartirish kiritish va tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (Z.G‘aybullayev)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimligi yordamchi hisobchisi (B.Abdurasulov) ajratilgan mablag‘larni “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.Ochilov va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Pardayev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



XOLMURATOVA
FLORA
UBAYDULLAYEVNA

Xalq deputatlari Pastdargʻom tumani
Kengashining
2025-yil 3-maydagi
VII-8-55-7-101-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib
bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan
mablagʻlar miqdori**

T/r	Mablagʻ ajratil- gan tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratilgan mablagʻ miqdo ri (ming soʻm)	Asos
Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 1- chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi:			1 311 324	x
1	Tuman hokimligi	“Fuqarolar tashabbusi” jamgʻarmasiga	395 000	Tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimining xati
Jami ajratilgan mablagʻ:			395 000	x
Qoldiq			916 324	x